



EXPRESSIONS OF COMPLIMENTS AND GRATITUDE IN THE UZBEK LANGUAGE

Roziya Mahmudova¹

Termiz State University

DOI: 10.5281/zenodo.15533986

Article History	Abstract
Received: 10.04.2025 Accepted: 28.05.2025	This article provides information on the expression of compliments and gratitude in the Uzbek language. In the Uzbek language, units expressed in this sense are expressed differently depending on the context, situation, and speaker's position.

Keywords: Uzbek language, units expressing compliments, situations expressed through units, aspects of the use of these units in formal and colloquial speech styles.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master's student of linguistics of the Uzbek language at Termiz State University, Uzbekistan

O'ZBEK TILIDA ILTIFOT VA MINNATDORCHILIK MA'NOSINING IFODALANISH HOLATLARI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

O'zbek tili, iltifot ma'nosini ifodalovchi birliklar, birliklar orqali ifodalanadigan holatlar, ushbu birliklarning rasmiy va so'zlashuv uslublarida qo'llanish jihatlari

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada o'zbek tilida iltifot va minnatdorchilik ma'nosining ifodalanish holatlari haqida ma'lumot berilgan. O'zbek tilida bu kabi ma'noda ifodalanadigan birliklar nutq sharoitidan, vaziyatidan hamda so'zlovchi holatidan kelib chiqib turlicha ifodalanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalar qatori tilshunoslikka ham e'tibor kuchaydi. Yangi-yangi sohalar vujudga keldi, oldin vujudga kelgan sohalar esa yanada rivojlanib, ularning ochilmagan qirralari ochilib, taraqqiy etdi va yuksaldi. Jumladan, olim-tilshunoslarga keng imkoniyatlar yaratilib, ularning erkin ilm bilan shug'ullanishlariga keng imkoniyat eshiklari ochib berildi. Ayniqsa, bu borada leksikologiya sohasida jadal ishlar amalga oshirildi deyishimiz mumkin. Leksikologiya-tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Bu borada qadim mumtoz adabiyotimizda Navoiy, Lutfiy, Boburlar qalam tebratgan bo'lsalar, Hamidulla Dadaboyev bugungi kunimizda jadal ishlarni olib bormoqda. Shunday ekan, har bir so'zning tarixiy o'tmishi va bugungi rivojlanuvi, uning amaldagi ifodalari qanday bo'lishi, ya'ni asarlarda qo'llanilish holatlari va jihatlari borasida leksikologiya o'zini namoyon etadi. Shunday so'zlar qatoriga iltifot va minnatdorchilikni kiritishimiz mumkin. Yuqorida aytilganidek, iltifot, aslida, kishiga qilingan marhamat, himmat, diqqat-e'tibor, yaxshi munosabat demakdir. Uning iltifot qilmoq, iltifot ko'rsatmoq kabi shakllari mavjud. Iltifot arabcha so'zdan olingan bo'lib, o'g'irish, burish, lutf ko'rsatish ma'nolarini ifodalaydi. Iltifot-kishiga qilingan marhamat, himmat, diqqat-e'tibor, yaxshi munosabatlarga asoslangan insoniy fazilatni ifoda etadigan tushuncha. Iltifot go'zal insoniy fazilatlardan biri bo'lib, lug'atlarda ko'rsatib o'tilganidek, keng va chuqur ma'nolarga ega. Iltifot kishilik jamiyatini bezab, ziynatlab turuvchi, insonlar o'rtasida mehr va shafqat tuyg'ularini paydo qiluvchi, rivojlantiruvchi lutfdir. Iltifot yuksak madaniyat belgisi bo'lisi bo'lib, iltifotli odam hech qachon birovga nisbatan bee'tibor bo'lmaydi, hammaga bir xilda chiroyli muomalada bo'ladi. Misol uchun, bir kishi o'rta yashar, qo'lida og'ir yuki bo'lgan ayolga rahmdillik bilan joy bersa, bu uning iltifotidir. Yoki xalqimizda qadimdan xonadonga mehmon kelsa, uy egasi - mezb-on uni ochiq chehra bilan kutib olib ko'rishganidan keyin o'tirgan va yana o'rnidan turib, bir-biriga qulluq qilgan. Bu go'zal iltifot edi. Agar do'st-u yor va oshnalar, qarindosh-urug'lar bir-biriga iltifotli va e'tiborli bo'lsa, ularni bog'lab turgan rishtalar yanada kuchayadi. Shuningdek, iltifot so'zi o'rnida ba'zi o'rinlarda lutf so'zi kelib qoladi. "Navoiy asarlari lug'ati" da lutf so'ziga quyidagicha izoh berilgan: "muloyimlik, rahmdillik, yaxshi

muomala, marhamat; lutfi oliy-oliy marhamat, lutf aylamak-yaxshilik qilmoq, marhamat etmoq". Minnatdor so'zi sifat so'z turkumiga oid bo'lib, "qilgan yaxshilikni ta'kidlab gapirish" ma'nosini anglatadigan arabcha mingan otiga *"ega bo'l"* ma'nosini anglatadigan tojikcha doshtan fe'liga -dor hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, yaxshilik qilgan kishi oldida burchlik hissi" ma'nosini anglatadi. Bu sifatdan o'zbek tilida minnatdorlik, minnatdorchilik otlari yasalgan. Ya'ni bironing qilgan yaxshiligidan, xizmatidan mamnun va qarzidor ma'nosini anglatadi. Minnatdorchilik akti, shubhasiz, ekspressiv aktining tarkibiga kiradi. Bu kabi birliklar xoh verbal, xoh noverbal tarzda bo'lsin, ushbu mazmun ifodalanadi va bir kishi tomonidan bir yoki ko'pchilikka qarata ifoda etiladi. Minnatdorchilik, birinchi navbatda, minnatdorchilik bildirish orqali namoyon bo'ladi, bu nutq yoki nutqdan tashqari harakat bo'lib, uning kommunikativ maqsadi suhbatdoshning o'zi uchun qilgan yaxshiligini qadrlashini ko'rsatishdir. Shu bilan birga, minnatdorchilik muallif hissiy holatining namoyon bo'lishi va qabul qiluvchining his-tuyg'ulariga ta'sir qilish vositasidir. Masalan, mayli, ishonching uchun tashakkur, do'stim! Adolatsizlik gardlarini kishi qalbidan yuvib tashlamoq ulug' baxt! Bunda do'stidan xursand bo'lgan shaxsning ko'tarinki kayfiyati ifodalangan. Va o'z minnatdorligini "tashakkur" so'zi orqali ifodalayapti. Minnatdorchilikni quyidagi omillar aniqlaydi: *vaziyatning tabiati, undagi ishtirokchilarning ijtimoiy xususiyatlari, minnatdorchilik bildirishni rag'batlantiradigan yaxshilikning "o'chamlari", "muloqotchilar o'rtasidagi munosabatlarning tabiati* kabi. Minnatdorchilik va iltifot birliklarining ifoda etilishi va ma'nosining berilishi haqida qadim diniy manbalar mavjud. Jumladan, quyidagi diniy manbani asos qilib olishimiz mumkin: Muqaddas Kitobda Yahova haq Xudo va barcha narsaning Yaratuvchisi ekani haqida aytilgan. Ibrohim, Muso hamda Iso a.s. payg'ambarlar Yahovoga topinishgan. Yahova muayyan bir xalqning emas, balki "butun Yer yuzining Xudosidir. Yahova o'z xizmatchilariga doimo "Minnatdor ekaningizni ko'rsatinglar", – deb aytgan. Biz har narsa uchun minnatdorchilik bildirishimiz lozim. Muhim bir sabab shuki, minnatdorlik o'zimizga nisbatan to'g'ri nuqtayi nazarda bo'lishga ko'maklashadi. Biror kimga minnatdorlik bildirgan kishi o'zini xursand his etsa, minnatdorchilikni eshitgan kishi esa o'zini undan-da baxtiyor his etadi. Minnatdor bo'lishning foydali ekanining yana bir sababi-u do'stlik rishtalarini mustahkamlab, mehr jihatlarini oshiradi.

Tadqiqotchilarning izlanishlariga ko'ra, doim boshqalarga minnatdorlik izhor etganimizda, bu miyamiz faoliyatini o'zgartirishi mumkin va hayotimizga ijobiyroq qaraydigan bo'lamiz. Minnatdor inson eng baxtli insondir. Shunday ekan ega bo'lgan barakalaringizni oddiy holdek qabul qilmay, Yahovaga shukrona ayting, zero u yaxshidir. Bundan shunday xulosa qilish kerakki, minnatdor bo'lish, minnatdorchilik ko'rsatish ortida boriga shukur qilish, qanoatli bo'lish xislatlari ham o'rin olgan ekan. Bugungi zamonamizda ham bunday ijobiy xislatlarga keng e'tibor qaratilmoqda. Negaki, bu kabi hislar inson ziynatini ko'rsatuvchi jihatlardandir. Minnatdorchilik muallifning hissiy holatining namoyon bo'lishi va qabul qiluvchining his-tuyg'ulariga ta'sir qilish vositasidir. 1) masalan, *Mayli, ishonching uchun tashakkur, do'stim! Adolatsizlik gardlarini kishi qalbidan yuvib tashlamoq*

ulug' baxt! "Rahmat" birligi bevosita ma'ruzachiga tegishli bo'lgan shaklda ifodalangan bo'lishi mumkin. Masalan, *Qo'llab-quvvatlaganingiz uchun rahmat*; 2) birovning qilgan ishidan, xizmatidan, qilgan yaxshiligidan mamnun va qarzдор: *Bug'doyni tayyor unga almashtirdingiz, minnatdorman*². *Ertami-kechmi har kimning ishi tushadigan mana shu qo'llaringiz uchun katta rahmat* (minnatdor ekanlik, mamnunlik holati)³. Normuhammad qushbegi zolim dushmani qo'lga tushirishning bosh omili bo'lgan Yusufbek hojiga o'z minnatdorchiligini aytib tugata olmas edi. (Shunday hisga egalik, yuqori o'rindagi minnatdorlik izhor qilmoq). Rasmiy suhbatda minnatdorchilik nutqining ayrim misollarini ko'rib chiqamiz. Minnatdorchilikning bir qismi sifatida qabul qiluvchining nomini ko'rsatadigan manzildan foydalanish mumkin. Masalan, *Hasanali qutidorga o'zining minnatdorchiligini aytib tugata olmas, so'z oralarida uni duolar bilan g'arq etmakda edi*⁴. Bu yerda shaxs nomining keltirilishi ko'proq rasmiylikni ta'minlayapti. Nutqda minnatdorchilikni bildirish ehtimoli xoh verbal, xoh noverbal holatlarda bo'lsin, ko'proq vaziyatdan, ijtimoiy holatdan kelib chiqib aniqlanadi. Umuman olganda, minnatdorchilikni bildirish ehtimoli ma'lum darajada xushmuomalalik qoidalarini e'tiborsiz qoldira olmaydigan kommunikatorlarga, shuningdek, vaziyat ishtirokchilarining yoshi, ularning yaqinlik darajasi va individualligi kabi pragmatik parametrlariga bog'liq. Minnatdorchilik bir tomondan, nutqiy harakat va ikkinchi tomondan bunday harakatning sababi haqidagi xabari (*E'tiboringiz uchun rahmat, kelganingiz uchun rahmat*) ni bildiradi. Biroq, ikkinchi komponent ko'pincha yo'qoladi, chunki tegishli ma'lumotlar aniq. Minnatdorchilikning o'zini namoyon qilish darajasini va umuman vaziyatni baholash, ko'pincha hissiy. Masalan, *meni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun tashakkur! Katta rahmat!* Umuman olganda, minnatdorchilik so'zlovchi tomonidan qabul qiluvchining xizmatlarining qiymatini tan olishini ifodalovchi belgidir. Shuningdek, minnatdorchilik shu munosabatni bildirgan kishiga qanchalik foyda keltirganiga qarab turlicha ifodalanadi. Masalan, kimdir sumka ko'tarishda yordam berdi, kimgadir sovg'a berildi, kimdir teatrga taklif qilindi va hokazo. Belgini tanlashda muhim rol ni aloqaning kontaktli yoki uzoq tabiati bo'lishi, so'zlovchining jinsi, yoshi, holati xususiyatlari va muloqot qiluvchilarning tanishlik darajasi o'ynaydi. Masalan, tabrik xatini olgandan so'ng o'sha odam turli yo'llar bilan minnatdorchilik bildiradi va bu uning bolasidan, hamkasbidan, yaqin do'stidan, xo'jayinidan tabrik olganiga bog'liq bo'ladi yoki kompaniyaning reklama bo'limi, mijozlar doirasini kengaytirishdan manfaatdor. Minnatdorchilik iborasini "suhbatni yakunlash" signali sifatida ham izohlash mumkin. Bu kabi holatni turli ijtimoiy vaziyatlarda uchratishimiz mumkin. Minnatdorchilik va iltifot holatlari, ifodalari kommunikativ vaziyatdan kelib chiqib pragmatik tahlil qilinadi. Bularga misol qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin: 1. Kim yaxshilik urug'ini sepsa, u rahmat hosilini oladi-bu yerda shukrona-minnatdorchilik ma'nosi ifodalangan. 2. Rahmat, otangga rahmat-bu yerda minnatdorchilik-rozilik ma'nosi mavjud. 3. Rahmat! – dedi-da,

² Қодирий А. Танланган асарлар. Тошкент, 2018. – Б. 407.

³ Oripova P., Toirova G. Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari. // Filologik tadqiqotlar: muammo va yechimlar. Online konferensiya materiallari. – Buxoro, 2024. – 44-48 b.

⁴ Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent, 2019. – B. 58.

tezda chiqib ketdi-bu yerda esa bir tomondan suhbatni yakunlash, aloqani tugatish ma'nosi ifodalansa, ikkinchi tomondan, so'zlovchi niyatining samimiyligini ta'kidlashi mavjud. Bu kabi o'rinlar, nafaqat, o'zbek tilida, balki boshqa tillar kesimida ham ko'rinishi mumkin. Jumladan, rus, xitoy, qolaversa, o'zbek tilida ham minnatdorchilikni ifodalovchi lisoniy birliklar, ya'ni so'zlar bilan birga qo'llaniladigan noverbal vositalar sezilarli darajada farqlanadi. Ba'zi nutqiy vaziyatlarda ruscha muloqot cheklangan miqdordagi imo-ishoralar bilan tavsiflanadi. Turli madaniyatlarda, jumladan, o'zbek, rus va xitoy tillarida keng tarqalgan imo-ishoralar qo'llanish doirasi va ishtirokchilar turi bilan farqlanadi. O'zbek va xitoy madaniyatlarida minnatdorchilik ifodalari yaqin turadi va ularning o'ziga xos ma'lum turlari bor, jumladan, chuqur ta'zim, yarim ta'zim kabi⁵.

Minnatdorchilik so'zlari nutq odobida muhim rol o'ynaydi, chunki ular ijtimoiy muvozanatda tinglovchi o'rtasidagi munosabatni saqlashga xizmat qiladi. Minnatdorchilik, aslida, chin dildan bildiriladi. Shuning uchun u doim har qanday holatda ham samarali bo'ladi. Ular orasida faqat rasmiylik-norasmiylik munosabatiga ko'ra (muloqot vaziyatlari), minnatdorchilik harakati nutqidagi ifoda vositalari o'rtasidagi farqlar mavjud. *"Cheksiz va chuqur minnatdorchilik bildiramiz", "Alloh sizdan u dunyo-bu dunyo rozi bo'lsin!", "Sizga tashakkurlar bo'lsin!", "Behad mamnunman"*. Shuningdek, nutqiy muloqot jarayonida minnatdorchilik bir nechta pragmatik ma'no: suhbatni yakunlash, samimiy munosabat, shukronalik, rozilik kabilarni ifodalab keladi⁶. Endi esa iltifot va minnatdorchilik so'zlarini asarlar miqyosida tahlillab chiqamiz. Bilamizki, o'zbek xalqi o'zining mehmondo'stligi, xushmuomalaligi, yaqinlariga oqibatlilik bilan alohida ajralib turadi. O'zbek tili muloqot maydonida esa bu xislatlarni o'zida ifoda etuvchi, aks ettiruvchi bir qancha so'zlar hamda birikmalar mavjud. O'zbek tili eng qadimiy va boy tillardan biri sanaladi. Buni bugungi kun nazarida ham ko'rishimiz mumkin. Kishilar boshiga og'ir kunlar tushganida ham, bir-birlariga yordam berganlarida ham minnatdorlik ifodalaganlarida, qolaversa, quvonchli kunlarida ham ma'lum bir so'zlardan foydalanib, muloqot jarayoniga kirishadi. Ana shunday so'zlar so'zlovchi-shaxsning ma'naviy, ruhiy, ichki his-tuyg'ularidan kelib chiqib ifodalanadi. O'zbek tilida iltifot va minnatdorchilikni ifodalovchi bir qancha so'zlar va birikmalar mavjud bo'lib, ular ma'lum bir holatda, ya'ni so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zga kishidan o'zining ishlariga berilgan yordamni, ijobiy munosabatni kutsa, unda shunday iltifotni yoxud minnatdorchilikni bildiradi. Quyidagi asarlarda ham iltifot va minnatdorchilikning yorqin ifodasini ko'rishimiz mumkin:

Palata eshigi oldida bizni hindiga o'xshagan qop-qora, katta-katta ko'zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga alohida minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo'lladi. Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong'iligi bosdi. Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, yo'q zaif emas, mayin tovush eshitildi: – Keling!... Rahmat! Odamga odam

⁵ Oripova P., Toirova G. Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari. / Filologik tadqiqotlar: muammo va yechimlar. Online konferensiya materiallari. – Buxoro, 2024. – 44-48 b.

⁶ Oripova P., Toirova G. Ko'rsatilgan manba. – 44-48 b.

*quvvat bo'ladi, ming rahmat! Akromjon, kursi qo'yib bering!...*⁷ Badiiy asardan olingan ushbu parchada iltifot ma'nosi *rahmat* so'zi orqali ifodalanyapti. Bu yerda uzoq paytdan beri yaqinlarini intiqlik bilan kutayotgan, so'nggida esa ularni ko'rgach, xursand bo'lib ketib, uni yo'qlab kelganlari uchun ularga nisbatan iltifotini bildirayotgan xasta ayol holati aks etgan. Yana bir badiiy asardan keltirilgan parchaga e'tibor qilsak:

Mulozimlardan biri shiyp on yoniga kelib ta'zim qildi-da, quloq-burni yo'q, g'alati bir chol huzuriga kirishga izn so'rayotganini bildirdi. Doro I surishtirib kelgan odamning sak qabilasidan ekanligini bilgach, – Mayli, kirsin, – dedi. Ikki qurolli mulozim boshlab kelgan Shiroq shohdan o'n besh qadamcha narida to'tadi-yu, yer o'pdi va o'rnidan turib, ta'zim qilganicha qotib qoldi. Bu kichik parchada esa soxta iltifot holati ifodalanyapti. Ya'ni oddiy cho'pon-Shiroqning shohga nisbatan soxta iltifoti yuqori darajada ko'rsatib o'tilgan. Bu kabi iltifot va mulozamatni xalq dostonlarida ham uchratishimiz mumkin.

“Alpomish” dostonidan keltirilgan ushbu kichik parchada ham ana shunday vazifa bajargan birlikni ko'rishimiz mumkin:

*Elning katta-kichiklari “qulluq bo'lsin” ga kelaberd*⁸.

Bu birikma butun el o'z iltifotlarini shohlarga ko'rsatish maqsadida ularning huzuriga kelishgani bu orqali ularga nisbatan o'z iltifotlarini ko'rsatish va ularni xushnud etish maqsadida qo'llanilganini his qilmaslikning iloji yo'q. Yoki mana bu gapda ham shunday holatga duch kelamiz: *Ustozim menda mashinaga mehr uyg'otdi. Undan minnatdorman.* Bu yerda nimanidir, ya'ni uning ma'lumoti bo'lmagan narsani o'rgatganligi uchun ustozidan minnatdor bo'lgan shogird timsoli aks etgan. Va qilgan xizmati uchun cheksiz minnatdorchilik bildirilyapti. Quyidagi parchada ham iltifot qatnashgan o'rinni ko'rishimiz mumkin:

*– Ha, aytmoqchi, sizlarni bir-birlaringga tanishtirmabman-ku, Xursandali peshonasiga “shaq-shaq” urdi. – Kalla yo'q-da menda, kalla. Bu kishi buxorolik do'stimiz bo'ladi. Ismi-shariflari Aminjon Ne'matov. Moskvada tanishganmiz. Qo'li gul jurnalist. Latifjon qo'llari ko'ksida, labida tabassum bilan, gavdasini oldinga va orqaga tashlab uch-to'rt bor tebratdi. – Juda yaxshi, juda soz. Bahonada yana bir do'stning sohibi bo'lib oldik. Mehmon hafsala bilan taralgan bo'liq, qop-qora sochini silab, “Rahmat, rahmat”, – deb qo'ydi*⁹.

Bu parchadagi iltifotni ifodalayotgan jumlar: “Qo'li gul jurnalist”, “Qo'llari ko'ksida, labida tabassum, gavdasini oldinga va orqaga tashlab uch-to'rt bor tebratdi” kabilar bo'lsa, minnatdorchilik esa “rahmat” so'zi orqali ifodalanyapti. Yuqorida keltirib o'tgan parchamizdagi “rahmat” so'zining ikki marta qo'llanilishi ma'noni kuchaytirgan. Quyidagi asarlar misolida ham bu kabi birliklar ishtirok etgan asardan parchalarini ko'rib chiqishimiz mumkin: *– Tuzukmisiz, ota? – Xudoga shukur, – dedi, Hasanali – boyag'idan biroz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan. – Ba'zi yumushlar buyursam... – Buyuringiz, o'g'lim. – Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi. – Xo'b, begim!*¹⁰ Bu yerda

⁷ Abdulla Qahhor. Ming bir jon. – Toshkent, 1956. – B. 33.

⁸ Alpomish dostoni. Toshkent, 2018. – B. 141.

⁹ Muqimov A. Qo'qon shamoli. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi. – Toshkent, 2016. – B.101.

¹⁰ Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent, 2019. – B. 87.

minnatdorchilik ma'nosi *rahmat* so'zi orqali ifodalanyapti. Ya'ni buyrug'iga ko'ngan Hasanaliga nisbatan Otabekning minnatdorchiligi aks etgan. Buni "*Rahmat, ota*" jumlasidan ham bilish mumkin. Shuningdek, bu parchada Hasanalining Otabekni "*Xo'b, begim, buyuringiz, o'g'lim*" deyishida ham iltifotni ko'rishimiz mumkin. Quyidagi jumlada ham boshqa so'z orqali ifodalangan minnatdorchilik va iltifot ma'noli birlikni ko'rishimiz mumkin.

– *Bu saroydan sizlarnikiga ko'chishim og'ir, – dedi Otabek, ammo otangizning ziyoratlariga borishga har qachon hozirman. – Sog' bo'ling, bek aka, boradiring'an kuningizni tayin qila olasizmi?*

Ushbu jumlada Otabek Rahmatning otasining qabriga borib uni ziyorat qilib, unga nisbatan o'z iltifotini ko'rsatishini aytgan bo'lsa, bundan xursand bo'lib, Otabekka o'z minnatdorchiligini bildirayotgan Rahmat esa unga "*Sog' bo'ling, bek aka*" deyishi unga nisbatan minnatdorchilik munosabatini hosil qilyapti.

Qutidor havlisiga qayrilar ekan, bek bilan xayrlashdi: – Albatta, bir kun biznikiga marhamat qilasiz, tuzikmi? – Xo'b, amak. – Bizniki mana shu burchakdagi eshik... Qaytag'a bu kun biznikida qolsangiz bo'lmasmi-a? – Rahmat... Xayr, salomat bo'lingiz.

Bu o'rinda "*Qutidor Otabekni uyiga taklif qilib, unga iltifot qilgan bo'lsa, Otabek ham unga o'z minnatdorchiligini "Rahmat, xayr, salomat bo'lingiz!"*" birikmasi orqali ifodalab, samimiy tilagini ham qo'shib minnatdorchilik ma'nosini kuchaytirganini ko'ramiz. Bundan "*Rahmat*" birligi 75-80% lik gaplarda minnatdorchilikni ifodalash qo'llanilishini misollar asosida ko'rib o'tdik.. Chunki Otabekning rahmat so'ziga salomat bo'lingiz birikmasini ham qo'shishi bu munosabatning darajasini oshirgan. *Rahmat* so'zi asli arabcha so'z bo'lib, o'zida *shafqat, marhamat, mehribonlik va achinish* ma'nolarini jamlaydi. Tashakkur va minnatdorchilikni ifodalovchi so'zdir. Bu so'zning *rahmat aytmoq, otangga rahmat, onangga rahmat, qilgan ishiga nisbat berib, rahmat zo'r qilding, mehribonchiligi va e'tibori uchun rahmat kattakon! Sen rahmat keltiradigan farzand bo'lasanov, xudo rahmat qilsin, rahmatiga olgan bo'lsin* kabi turlicha shakllari mavjud. Rahmat aytish-minnatdorchilik bildirish shakli. Masalan, Sa'dulla Siyoyevning "*Yorug'lik*" asarida keltirilgan mana bu o'ringa e'tibor qilsak, "*U qayta-qayta rahmat aytib, meni mashinaga kuzatib qo'ydi*". Bu yerda minnatdorchilik ifodalash oshib ketganligini va bu eshituvchiga aytuvchi tomonidan yuksak minnatdorchilik ifodalanayotganligi ekani ko'rinib turibdi. Shuningdek, bu birlik marhamat, muruvvat ma'nosini ham ifodalaydi. Jumladan, Hamzaning "*Maysaraning ishi*" komedik-asaridan quyidagi parchani havola etsak: "*Xudoyo, rahmatingdan o'rgilay, oshxo'rga-osh, nonxo'rga-non yetkizursan*". Bu parchada ham marhamat ko'rsatish, muruvvat ko'rsatish ma'nosi ifoda etilgan. Shuningdek, izohli lug'atda bu so'z ishtirok etgan birikma tarzidagi *Xudo rahmat qilsin* yoki *rahmatiga olsin* kabi birikmalar ham mavjud. (Vafot etgan kishi haqida). Bu birikma *Xudo o'z marhamatiga sazovor qilsin* degan ma'noni ifodalaydi. Rahmat so'zi qatorida barakalla so'zini ham keltirishimiz mumkin. Bu so'z ham, asosan, minnatdorchilik, kimsaning biror harakatidan mamnunlikni, ma'qullashni, maqto'v kabi ma'nolarni ifodalaganda ishlatiladi. Bu so'zning yoniga biror turdosh shaxs otini qo'shib aytish esa

kishining o'sha insonga bildirayotgan yuksak minnatdorlik hissini namoyon etadi. Masalan, quyidagi parchada ham yuqoridagi fikrimizning isbotini ko'rishingiz mumkin. *Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz-ya'ni ma'naviy otamsiz. – Barakalla, o'g'lim, – dedi Hasanali-, javobingiz o'z o'ylag'animchadir*¹¹. Ushbu parchada Otabekdan munosib javob kutib, undan shunday javobni olgan va undan minnatdor bo'lgan ota siymosi aks etgan. Ya'ni Otabek Hasanalini yuqori darajaga ko'tarib, unga oddiy xizmatkor sifatida emas, balki otasi darajasiga chiqargani uchun undan shunday hurmat, e'tirof ko'rgani Hasanalining Otabekdan minnatdor bo'lishiga sabab bo'ldi va yuqoridagi jumlaning qo'lladi.

Barakalla so'zining ma'nosi asli seni xudo muborak qilsin; ofarin deganidir. Bu so'z minnatdorchilik, mamnunlikdan tashqari ma'qullash va rozilik, qoniqmaslik ma'nolarini ham beradi. *Barakalla, mana endi o'zingizga keldingiz*¹². Bu gapda "Barakalla" so'zi ma'qullashni ifodalayotgan bo'lsa, – *Do'ppi tikib o'tiribsiz-ku, mening oldimga chiqarmidingiz, barakalla sizga! – dedi*¹³. Bu gapda esa norozilik, qoniqmaslik ma'nosi o'z ifodasini topgan. Jumladan, quyidagi gaplarda ham minnatdorchilik ma'nosi ifodalanganini ko'rishimiz mumkin:

Ikki yoshning muhabbatlik, uvalik-juvalik bo'lishlarig'a duo qiling'ach, sovchilarg'a zarrin to'nlar kiydirildi. Hasanali qutidorga o'zining minnatdorchiligini aytib tugata olmas, so'z oralarida uni duolar bilan g'arq etmakda edi. – To'nlar muborak bo'lsin! – Sizga kuyav o'g'il muborak bo'lsin! Qutidor ixlos va samimiyat bilan: – Qutlug' bo'lsin! – dedi.

Yuqoridagi parchada ikki yoshning unashtirilishiga rozi bo'lganligi uchun Hasanalining Qutidorga bildirgan minnatdorchiligi ifodalangan. Minnatdorchilik ma'nosida xursandchilik, bir kishining ikkinchi bir tarafga qilgan yaxshiligi tufayli bildirilgan marhamati aks ettirilgan. Minnatdorchilik ma'nosini ochishda, ayniqsa, To'nlar muborak bo'lsin, sizga kuyav o'g'il muborak bo'lsin, qutlug' bo'lsin kabi birikmalar faol qo'llangan. Yoki Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarining 114-sahifasida keltirilgan quyidagi parchaga e'tibor qilsak:

– Qo'rqmangiz hoji, – dedi, Marg'ilon hokimi o'rinsiz qon to'kuvchi kishi emasdir. Qo'qonga borg'ach, birinchi ishim o'g'lingizni qutqarish bo'lsin, unisidan qayg'ulanmangiz, hoji.

– Qulluq, qushbegi, agar bu xizmatni o'z zimmangizga olar ekansiz, ustimga katta minnat qo'ygan bo'lasiz.

Bu jumlada qushbeganing Yusufbek hojiga o'g'lini qutqarishiga yordam berishining aytishi, unga ma'naviy ko'mak bergani Yusufbek hojining unga minnatdorchilik bildirishiga sabab bo'lyapti va bu "qulluq" so'zi orqali yuzaga chiqyapti. Keyinida beriladigan parchada esa boshqacharoq ma'noni ko'ramiz:

Hammasi poraxo'r! Ambarsumyan-malades! Kallavaram o'zbekning nozik joyidan mahkam ushladi! Manaman degan obkomlar-u raykomlarni, raislar-u bug'altirlarni g'ippa

¹¹ Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent, 2019. – B. 25.

¹² M. Ismoilov. Farg'ona tong otguncha. – Toshkent, 2014. – B. 123.

¹³ Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent, 2019. – B. 28.

yoqasidan oldi! *“Marhamat qilib to‘plagan millionlarni cho‘zib qo‘y! Ochig‘ini ayt! Kimdan olding-u, kimga cho‘zding? Qachon? Qancha?”* Mana buni haqiqiy stalincha metod desa bo‘ladi! Otangga rahmat-e, shovvoz. Qani shunaqalardan o‘n minggi, boring ana mingtasi bo‘lsa! Hammayoqda tartib qaror topardi! Zamon aynib ketdi, zamon!¹⁴

Bu jumlada esa asli minnatdorchilik ma‘nosini beruvchi *otangga rahmat* birikmasi bu yerda endi g‘azab, achinish, afsuslanish, kesatish ma‘nosida ifodalanyapti. Shovvoz so‘zining ifodalanishi bu ma‘noni yanada kuchaytirgan. Quyidagi jumlada ham shu kabi ma‘no ifodalanganini ko‘rishimiz mumkin:

– *Bu uy Zaynabniki. Shuncha bola bilan yana Tom solish unga og‘irlik qiladi. Agar siz rozi bo‘lsangiz, hovli etagiga bir uy bir ayvon qurib o‘sha yerda yashay. Sizni ham o‘sha uyga olib o‘taman. Birga yashaymiz. Kampir jimib qoldi. Yelkalari silkinardi-yu, ko‘zida yosh ko‘rinmasdi. Ajab, ko‘rmay degan ko‘zga yosh ham kelmas ekan. Kampir eshitar-eshitilmas pichirladi: Umrindan baraka top, bolam. O‘g‘il o‘g‘il ekan. Shuning uchun o‘g‘il tug‘ilgan uyda to‘y bo‘lib ketadi. Beri kel, peshonangdan bir o‘pib qo‘yay*¹⁵.

Ushbu parchada onaning farzandiga bo‘lgan yuqori tarzdagi minnatdorchiligi ifodalangan. Farzandi oilaviy hayotni tushungani, jigariga mehr-oqibatli ekani va onasini ham tashlab ketmay shu yerda qolishga tayyorligi ona dilini xushnud etadi va u o‘g‘lidan minnatdor bo‘ladi. Bu hisni esa kampir *“umringdan baraka top”* va *“peshonasidan bir o‘pish”* orqali ifoda etgan. Keyingi parchada ham minnatdorlik holatini aks ettirgan so‘zga duch kelishimiz mumkin. Masalan, Said Ahmadning *“Jimjitlik”* romanining 108-sahifasida ham shu kabi misolni ko‘rishimiz mumkin:

Bolalar yo‘l yurib, ancha charchashgan edi. Bir-birlarini bosib sholcha ustida dumalay boshladilar. Baxshilar bilan berilib suhbat qilayotgan Alaviya opa ularning beozor sho‘xliklariga iljayib qarab qo‘yardi. Keyin u o‘rnidan turib ko‘zoynagini qo‘liga oldi-da, bir-bir bosib bolalar tepasiga keldi.-Ha, bolalarim, Kiyiksovdi enani ziyorat qilgani keldinglarmi? Balli, balli, sizlarga keyin u suhbatga quloq solib turgan Tolibjonga yuzlandi: – Bolalaringizmi? – Yo‘q, jiyanlarim, – deb javob qildi Tolibjon. Quyidagi gap misolida ham minnatdorchilik ma‘nosi ifodalanganini sezamiz: Sayfi Soqiyevich tumbochka ustiga gazeta yozib, patirni yaproq-yaproq to‘g‘ralgan qazi tayyorlab qo‘ygan ekan.

–*O‘tiring-, dedi u Sherzodga qaramay. Chamasi, boyagi keskinlikning zahri xiyla ko‘tarilgan edi.*

– *Rahmat! – Sherzod samimiy ohangda tashakkur bildirdi.*

– *Hozir kechki ovqatga boramiz. Ya‘ni Sayfi Soqiyevichning taklifiga o‘z minnatdorchiligini ifodalagan Sherzod obrazi aks etgan*¹⁶.

Sherzod o‘z minnatdorchiligini *“rahmat”* so‘zi orqali samimiy ohangda ifodalanyapti. Bu, albattaki, ijobiy munosabatdagi munosabatni aks ettiryapti.

Minnatdorchilik, aslida, kimgadir yaxshilik qilganingizda, kimgadir faqat yaxshi narsalar xohlab uni amalda ko‘rsatganingizda va o‘sha inson sizdan xursand bo‘lsa, sizga

¹⁴ Hoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar. Toshkent, 2019. – B. 14.

¹⁵ Аҳмад С. Жимжитлик. Тошкент, 1989. – Б. 64.

¹⁶ Аҳмад С. Жимжитлик. Тошкент, 1989. – Б. 67.

yaxshiligingiz uchun qoyil qolganida sodir bo'ladi. Ya'ni siz kimningdir iltimosini bajarishingiz, kimdir uchun qayergadir borib, nimadir ish qilsangiz, xullas, o'sha insonga foydali nimadir qilganingizda yoki uning iltimos yoxud aytganini qilgangizda sodir bo'ladi. Shuningdek, sarkazm yoki hazil shaklidagi minnatdorchilikni ham badiiy asarlarda ko'plab uchratishimiz mumkin, chunki bu usul orqali yozuvchilar qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarni yoki ijtimoiy vaziyatlarning murakkabligini ifoda etadilar. Bu yerda sarkazm va hazil, asosan, axloqiy yoki ijtimoiy tanqid yoki qaysarlikni bildirish uchun qo'llaniladi. Masalan, Charls Dikkinsning "Oliver Twist" asarida sarkazm bilan aytilgan minnatdorchilik misolini ko'rishimiz mumkin. Oliver Twist yetimxonada bo'lganida, uning holati yomon bo'ladi va unga adolatsiz munosabatda bo'lishadi.

Bir kuni u yana ovqat so'raganida, uni yovuz mister Bambl shunday deydi: Rahmat, bola! Sen bu qadar kamtar bo'lganing uchun qandaydir mukofotga loyiq bo'lsang kerak-a?!

Keltirilgan badiiy matn parchasida *rahmat* so'zi va qolgan ibora sarkazm sifatida qo'llanilgan. Mister Bambl Oliverni qo'rqitish va uning jasoratini tahqirlash maqsadida go'yoki "kamtarlik" uchun minnatdorchilik bildirmoqda, lekin bu minnatdorchilik haqiqiy emas, balki teskari ma'noda qo'llanilgan. Keyingi jumla ham shu kabi holatni ifoda etib, maxsus so'zlar orqali ifodalangan:

– *Meni ona-bolaning qayoqqa borishi emas, o'rindiqlarning qancha joyi loyga belangani ko'proq o'ylantirardi. Ayol chirpirab o'tirganimni sezdi, shekilli, xijolat chekib shosha-pisha qo'l siltadi.*

– *Mana, keldik, rahmat. Shu yerda trolleybusga chiqamiz.*

– *U ovunib qolgan o'g'ilchasini ko'tarib shosha-pisha mashinadan tushdi.*

– *Katta rahmat, baraka topinglar.*

Ushbu parchada ona-bolaga yordam bergan insonlarning minnatdorchiligi aks etgan. Ya'ni loyga yiqilib tushib, yo'lidan ayrilgan ona-bolaga yordam berib, ularni mashinasiga o'tkazib, manzillariga olib qo'ygan insonlarga ularning samimiy minnatdorchiligi ifodalangan. Bu "*katta rahmat, baraka topinglar*" jumlasini bilan aks etgan. *Baraka topmoq* qo'shma fe'l bo'lib, Alloh beruvchi nasiba, ne'mat, ehson nazarda tutiladi. *Katta rahmat, rahmat* kabi birliklar bilan kelishi esa minnatdorchilik ma'nosining kengayishiga yordam bergan. Iltifot ko'rsatish yoxud minnatdorchilik ifodalashda so'zlovchi butun hissiyotini, ya'niki hissiy xohish-intilishini ifoda etadi va uni ma'lum bir so'zlar, iboralar, ko'chma ma'noli birliklar orqali namoyon etadi. Endigi parchada ham ana shunday ko'chma ma'noli birlik bilan ifodalangan o'ringa e'tibor qilsak:

– *Siz janob targ'ib qilsangiz va kengash bersangiz qabul qilar, deb o'yladiq.*

– *Habba! – dedi mahdum xursandlik bilan bu to'g'rida yaxshi so'zlashmag'an edik, so'zlasharmiz, inshoolloh ko'nar.*

– *Salomat bo'lingiz, taqsir.*

Ushbu hissiy birlik "*Salomat bo'lingiz, taqsir*" orqali berilgan. Yoki yana shu kabi minnatdorchilik holatlarini ko'plab keltirishimiz mumkin. Misol uchun:

– ***Tashakkur, tashakkur!*** – *koshinpaz nihoyatda xursand bo'lib ketdi.*

Bunda bildirilgan minnatdorchilik undov so'z orqali ifodalangan¹⁷. Yoki *tashakkurnomalar, minnatdorchilik* xatlarini olsak. Ularda ham kimningdir (xoh inson, xoh tashkilot bo'lsin) kimgadir qilayotgan minnatdorchiligi ifoda etilgan bo'ladi. Yoki o'qituvchi o'quvchisiga tashakkurnoma bersa, ustozning o'sha o'quvchidan va unga tarbiya bergan ota-onasidan minnatdorchiligi ifodalangan bo'ladi. Yaqin zamonlarda, ayniqsa, urushda yaxshi xizmat qilganlar uchun tashakkurnomalar berilgan. Masalan, *Bu qonli jangda mening qismatimdagi yigitlar botirlik ko'rsatib, qo'mondonlikdan tashakkurnoma oldilar*. Bu yerda yuqoridagi fikrning izohini ko'rishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, iltifot va minnatdorchilik birliklari nutq jarayonida qo'llaniluvchi, ma'lum bir samimiy munosabatni ifoda etuvchi birliklar hisoblanib, kommunikatsiyada so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi yaxshi munosabatni ifoda etadi. Bu kabi birliklar o'zaro muloqotda faol qo'llanilib, turli vaziyatlarda ma'lum vazifani bajarib keladi. Jumladan, kimdir yordam qilganida, ko'ngilni ko'targanida, mehribonchilik qilganida, muruvvatli bo'lganida, maslahat berganida, mushkulini oson qilganida shu kabi birliklaridan foydalanilsa, samimiy, xushmuomala nutq sharoitlarida, yaxshi fikr bildirganida, ijobiy qarashlarni ifodalovchi muloqot jarayonlarida esa iltifot birliklaridan faol qo'llaniladi. Iltifotdan doimo samimiy munosabat o'rnatishda foydalaniladi. Bu birliklar faqat ijobiy kommunikatsiya uchun xizmat qilishi zarur. Yuqoridagi birliklar noverbal tarzda ham ifodalanib, ma'lum bir holatda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi samimiy muloqotda iste'molda bo'ladi. .

Adabiyotlar:

1. <https://oyina.uz/uz>.
2. A.Qodiriy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2018.-B.407.
3. P.Oripova, G.Toirova. Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari// Filologik tadqiqotlar: muammo va yechimlar. Online konfwrensiya materiallari-Buxoro, 2024.-44-48 b.
4. A.Qodiriy. O'tkan kunlar.-Toshkent, 2019.-B.58.

¹⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati / E.Begmatov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev va b.